



**“OLTIN ZANGLAMAS” ROMANING O‘ZIGA XOSLIGI VA
BADIYYATI**

Jozilova Oyshirin Yo‘ldosh qizi, SamDPI
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi va

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi
SamDPI Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich va maktabgacha
ta‘lim nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi
Tel: +998995256863
moxiramirsanova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada taniqli yozuvchi Shuhratning shaxs va ijodkor sifatidagi xislatlari, shuningdek, o‘zbek adabiyotining yirik vakili Shuhratning “Oltin zanglamas” romanidagi asosiy g‘oya va mazmun, obrazlar tizimi, tasvir uslubi, til va badiiy xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarda insoniy fazilatlar, mehnatsevarlik, Vatan tuyg‘usi, urushdan keyingi jamiyat hayoti badiiy yoritilgan bo‘lib, roman o‘zbek adabiyotining eng muhim ijtimoiy-psixologik asarlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: urush, do‘st, dushman, insoniylik, oila, badiiylik, g‘oya, obraz, Vatan, mehnat, urush, insonparvarlik.

Annotation

The article analyzes the qualities of the prominent Uzbek writer Shuhrat as a person and creator, as well as the main idea and content, the system of characters, style of depiction, language, and artistic features of Shuhrat’s novel “*Oltin zanglamas*” (“Gold Does Not Rust”) from a scholarly perspective. The novel artistically portrays human virtues, diligence, love for the Motherland, and post-war social life, and is recognized as one of the most significant socio-psychological works of Uzbek literature.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Keywords: war, friend, enemy, humanity, family, artistry, idea, character, homeland, labor, war, humanism.

Аннотация

В статье анализируются личные и творческие качества известного узбекского писателя Шухрата, а также основная идея и содержание, система образов, стиль повествования, язык и художественные особенности романа Шухрата «*Oltin zanglamas*» («Золото не ржавеет») с научной точки зрения. В романе художественно освещаются человеческие добродетели, трудолюбие, любовь к Родине и жизнь общества в послевоенный период. Произведение признаётся одним из важнейших социально-психологических произведений узбекской литературы.

Ключевые слова: война, друг, враг, человечность, семья, художественность, идея, образ, Родина, труд, война, гуманизм.

Kirish

O‘zbek adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-falsafiy mazmuni, inson psixologiyasining chuqur tasviri bilan ajralib turuvchi ko‘plab romanlarning yaratilishi bilan ahamiyatli davrdir. Shuhrat (G‘ulom Alimov) ana shunday ijodkorlardan biri sifatida adabiyotimiz tarixida muhim o‘rin tutadi.

Shuhratning “**Oltin zanglamas**” romani yozuvchining yirik epik asari sifatida o‘zbek nasrining shakllanishida alohida bosqichni tashkil etadi. Asarda inson ruhiy olami, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, urushdan keyingi O‘zbekiston hayoti, mehnat va vatanparvarlik masalalari chuqur badiiy tahlil etiladi.

Asosiy qism. Taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatovning Shuhrat haqidagi shunday iliq fikrlari bilan boshlasak:

“Shuhrat akaning ham ijodkor-adib, ham ona-yurt fuqarosi, kuyunchak inson sifatida talay ibratli xislatlari bor edi. U, avvalo, bir qo‘lda qurol bilan jang qilgan, bir qo‘lda qalam bilan shu aziz Vatanini kuylagan, ulug‘lagan — so‘zi va ishi bir adib edi. U nihoyatda mehnatsevar, tartib-intizomli, saranjom-sarishtali, farishtali



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

odam bo‘lgan. Hayotning ko‘p achchiq-chuchugini totgan, boshiga og‘ir savdolar tushganda ham o‘zini yo‘qotmagan, imon-e‘tiqodiga gard yuqtirmagan bukilmas iroda egasi edi. Odam bolasi goho eng aziz pinhoniyy tuyg‘ularini, yurak sirlarini kimgadir aytgisi, qalbini tushunadigan kimsa bilan sirlashgisi keladi. Shuhrat aka shaxsan men tanigan, bilgan yozuvchilar orasida ana shunday tabarruk zotlardan bo‘lgan¹. Ijodkorning barcha asarlari o‘ziga xos qimmatga, alohida jozibaga ega. Ijodkorni lirik merosi ham juda go‘zal. Muhabbat izhori bilan boshlanadigan quyidagi satrlarga diqqat qilsak:

Seni sevdim jon-u dil bilan
Seni sevdim bo‘lmading iqror.
Seni sevdim shirin til bilan
Qiy boqib o‘tmading bir bor!
Yillar o‘tdi, o‘tdi yoshlik ham,
Tindi qalabda jo‘shqin urgan qon.
Qalbim titrar hamon eslasam,
Hamon bordir ko‘nglimda armon

Muhabbat haqidagi qaynoq satrlar. Ijodkorning shoirona qalbi doimo mehr-muhabbat bilan limmo-lim.

“Oltin zanglamas” asari ham satrlardagi kabi go‘zal muhabbat tasviri bilan boshlanadi. Roman mutolaasiga kirishar ekansiz asarning boshlanishi shahar qizi va oddiy qishloq yigitining sof, samimiy muhabbati voqealari tasviri bilan boshlanadi. Qodirjon juda aqlli yigit bo‘lib, u bo‘sh vaqtini kitoblar mutolaa qilish bilan o‘tkazadigan yigit. Shaharlik qalamqoshga shaydo bo‘ladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning dialoglari, shuningdek, o‘quvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy va samimiyligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. “Oltin zanglamas” romani yozuvchi Shuhrat ijodida alohida o‘rin egallaydi. Nafaqat ijodkor ijodida balki o‘zbek adabiyoti xazinasiga qimmatli manba bolib kiritilgan. Bilamizki, bu asarda mamlakatimiz hayotida yuz bergan 30-yillar qatag‘oni qurbonlari hayoti qalamga olinadi. Ijodkor urushdan keyingi asarning voqealari rivojida baxtiyor oila tasvirini ham yoritib bera olgan.

¹ Normatov U. Oltin zanglamas. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati -T: 2013



Asarda farzandsiz oila tasviri ham juda tasirchan keltirilgan. Chin muhabbat bilan turmush qurgan, Sodiqjon va Jannatxonlarning farzandsizlik dog‘ining azoblari ham keltirilib o‘tilgn. Sodiqjon qanchalik qiynalmasin, lekin uni xotini Jannatxonga bildirmaslikka harakat qiladi. Jannatxon ham pana – pana joyga borib yig‘lar edi. Buni ko‘rib qolgan Adolat xola esa keliniga tasalli berishga harakat qilar edi. Asarni o‘qish jarayonida qahramonlar o‘zining yuksak darajadagi qat‘iyati, sabr-bardoshi bilan ham kitobxon ko‘nglidan joy oladi.

“Oltin zanglamas” romanida inson xarakteri chuqur psixologik tahlil bilan ochib beriladi. Asarda bir qator yodda qolarli obrazlar yaratilgan bo‘lib, ularning har biri o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy ruhini aks ettiradi.

- **Asosiy qahramonlar** – jamiyat taraqqiyoti uchun o‘z mehnatini ayamaydigan, halol yashashga intiluvchi insonlar sifatida gavdalanadi.
- **Ijobiy obrazlar** – fidoyilik, sadoqat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarining timsoli sifatida badiiylashtirilgan.
- **Salbiy obrazlar** esa jamiyatga, mehnatga loqaydlik, ma‘naviy sustkashlikning oqibatlarini ochib beradi.

Shuhrat har bir obrazning ichki dunyosiga chuqur kirib boradi, ularning ruhiy kechinmalarini, hayotiy tanlovlarini chuqur psixologik tasvir bilan ko‘rsatadi.

Adib asarda faqat ijobiy obrazlarni emas, balki salbiy obrazlarga ham to‘xtalib o‘tgan. Mirsalim obrazi orqali ikkiyuzlamachilik, faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan, o‘z manfati uchun vatanini sotishdan qo‘rqmaydigan insonlar yoritilib berilgan. Bunga misol qilib keltiradigan bo‘lsak Mirsalimning urushga ketishi, hali urush nimaligini bilmasdan turib, porox hidini deyarli his qilmasdan, dushmanlarga sotilib ketishi va urushga ketishidan oldin ham Sodiqjonga qilgan ishlarini, muomalalarini yaqqol misol qilib keltirsak bo‘ladi. “Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yildan keyin ham oshkor bo‘ladi”, “Kasalni yashirsang istimasi oshkor qiladi”, - degan xalq maqollari bor. Mirsalim o‘z ona yurtiga vatan hoyini bo‘lib qaytadi. Vatan qahramoni bo‘lib qaytgan Qodirjon bilan uchrashgan vaqtida ichidan nimadir uzulganday bo‘ladi. Yozuvchi asarda Adolat xola obrazi orqali matonatli ona tasvirini chizib bera olgan. Ota-ona uchun farzand nech yoshga kirmasin ilk bora tili chiqqan, ona so‘zini tutilib aytadigan, yurishni zo‘rg‘a eplayotgan jajji bolacha bo‘lib qolaverar ekansiz. Sodiqjon qamalgandan so‘ng Adolat xola o‘zini ancha oldirib qo‘yadi. Sodiqjon



qahramon bo‘lmagunicha, yuziga chaplangan tuhmat loylarini yuvmagunicha, hamma Sodiqjonni qahramon sifatida tan olmagunicha, Adolat xola bu dunyodan ko‘z yumadi. Adib bu asarda juda ko‘p xalq naqlaridan foydalanadi “Yolg‘oning taxtida shoh bo‘lgandan, rostgo‘yning chorbog‘iga giyoh bo‘l”, “Vaqt-sevgi doyasi”, “Kal tarangunicha to‘y tarqaladi”, “Sirkasi suv ko‘tarmas”, “Er xo‘rligi yer xo‘rligidan yomon”, “O‘limni o‘ylagan imorat solmaydi”, “Erka qilib boqilgan tekis yo‘lda qoqiladi” bu qatorni davom ettirsak yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu ijodkorning xalq og‘zaki ijodi bilimdoni ekanligidan dalolat beradi. Bu maqollar asar voqealari rivojiga ustalik bilan singdirilib yuborilgan.

Asarning bosh g‘oyasi inson mehnatining qadrini ulug‘lashdir. Shuhrat o‘z qahramonlari orqali **“oltin mehnat bilan topilgandagina zanglamaydi”** degan falsafani ilgari suradi. Urushdan keyingi O‘zbekiston hayotida yangi qurilishlar, zavod-fabrikalar barpo etilishi, qishloq xo‘jaligi rivoji, insonlarning yangi jamiyat qurishdagi faol ishtiroki badiiy obrazlarda gavdalanadi. Bu jihatdan roman nafaqat badiiy asar, balki o‘z davrining ijtimoiy hujjati sifatida ham qimmatli hisoblanadi. Shuhratning uslubi sodda, xalqona va obrazli. U o‘z qahramonlarini jonli dialoglar, xalq maqollari, iboralar, tamsillar orqali gavdalantiradi. Tilning boyligi va uslubning hayotiyliigi asarni o‘quvchi uchun yanada jozibador qiladi. Shu bilan birga, roman uslubi o‘z davrining adabiy an‘analariga mos holda epik kenglik va falsafiylik bilan sug‘orilgan.

“Oltin zanglamas” Shuhrat ijodining cho‘qqilaridan biri bo‘lib, o‘zbek adabiyotida urushdan keyingi inson hayotining badiiy manzarasini yaratgan asarlar qatorida turadi. U o‘z davrida ijtimoiy-siyosiy tafakkur va ma‘naviy qadriyatlarining shakllanishiga xizmat qilgan, keyingi nasr asarlariga ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa

“Oltin zanglamas” romanida urushdan oldingi va keying davrdagi mudhish qatag‘onlarga duchor etilgan halol, iymon-e’tiqodli, pokiza qalb kishilarning fojiali qismati badiiy tasvirlangan. Asarda bir necha insonlar taqdiri mahorat bilan yoritilib berilgan. O‘qituvchi degan sharaflil va mashaqqatli bo‘lgan kasb egasining o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbati, sadoqat bilan ishlashi va bolalarga bo‘lgan mehr-muhabbati yaqqol ko‘rsatib o‘tilgan. Qancha qiyinchilik ko‘rsa ham o‘z iymonidan



kechmagan, vijdonini, vatanini sotmagan, or-nomus uchun o'limga tik boqadigan, yurt uchun jonini fido qiladigan inson qiyofasida Sodiqjonni tasvirlagan. Bu asarda ona obrazi shunchaki sodda va tushunarli qilib berilganki, kitobni o'qir ekansiz, mehribon, soddagina onama, boshing toshdan ekan deb qo'yasiz. Ona umrining oxirigacha farzandini kutib yashadi, lekin o'g'li qahramon bo'ldi-yu, ammo tirik qaytmadi. Asardagi voqealar rivojiga sho'ng'isangiz uni qo'lingizdan qo'ymasdan o'qir ekansiz. Bu asarni o'qib inson o'ziga ko'p narsa olsa bo'ladi va hammaga bu asarni o'qishni tavsiya etgan bo'lar edim.

Shuhratning "Oltin zanglamas" romani o'zbek nasrida ijtimoiy-psixologik tasvirning yangi bosqichini boshlab bergan yirik epik asarlardan biridir. Unda inson mehnatining ulug'ligi, Vatanga muhabbat, sadoqat va halollik kabi umuminsoniy qadriyatlar badiiy shaklda ifodalangan. Til va uslubning jonliligi, obrazlarning chuqur psixologik ochilishi, zamon ruhi bilan uyg'unligi asarni o'zbek adabiyotining oltin fondiga kiritgan.

"Oltin zanglamas" bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan, insonni ezgulikka, mehnatga va ma'naviy barkamollikka chorlaydigan asar sifatida dolzarbligini saqlab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022, 416 bet.
2. Shuhrat. Oltin zanglamas. - T.: Yangi asr avlodi. 2018-yil
3. Mirsanova, M. X. Q. (2023). O 'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI VA ADABIY ATAMALAR TAHLILI (Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(10), 346-351
4. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Samarqand: SamDU nashri. 2019, 396 bet.
5. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoldinova Sh. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi.-Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2020, 384 bet.